

JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH: HUQUQIY-TASHKILIY CHORALAR TAHLILI



Qobilov Ulug'bek Musurmonovich

O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti bo'lim boshlig'i, dotsent, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jazoni ijro etish tizimida jazoni ijro etish muassasalari faoliyati samaradorligini oshirish, mahkumlarni qayta tarbiyalash, inson huquqlarini himoya qilish, raqamlashtirishni joriy etish kabi yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, islohotlarning samaradorligini baholashda yagona monitoring tartibini joriy etish taklif etilgan.

Kalim so'zlar: jazoni ijro etish, jinoyat-ijroiya qonunchiligi, jazoni ijro etish muassasalari, mintaqaviy muvofiqlashtirish markazlari, tizim faoliyatini raqamlashtirish.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧРЕЖДЕНИЙ ПО ИСПОЛНЕНИЮ НАКАЗАНИЯ: АНАЛИЗ ПРАВОВЫХ И ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МЕР

Аннотация. В статье проанализированы правовые основы реформ, осуществляемых в системе исполнения наказания. Реформы направлены на повышение эффективности работы учреждений исполнения наказания, перевоспитание осужденных, защиту прав человека и внедрение цифровых технологий. Предлагается ввести единый порядок мониторинга хода реформ для оценки их эффективности.

Ключевые слова: система исполнения наказаний, уголовно-исполнительное законодательство, учреждения исполнения наказания, региональные координационные центры, цифровизация деятельности системы.

IMPROVING THE ACTIVITIES OF PENAL INSTITUTIONS: ANALYSIS OF LEGAL AND ORGANIZATIONAL MEASURES

Abstract. This article analyzes the legal foundations of the reforms implemented in the penal enforcement system. The reforms aim to increase the efficiency of penal institutions, rehabilitate inmates, protect human rights, and introduce digital technologies. It is also proposed to establish a unified monitoring procedure to assess the effectiveness of these reforms.

Keywords: penal enforcement, penal legislation, penal institutions, regional coordination centers, digitalization of the penal system.

Davlatmiz rahbari O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida bugun jahon miqyosida yurtimiz haqida so'z ketganda «Yangi O'zbekiston» iborasi tilga olinayotgani, bu keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'yganimiz, erishayotgan zalvorli yutuqlarimizning e'tirofi ekanini alohida ta'kidladi.

Darhaqiqat, keyingi vaqtlarda mamlakatimizda barcha sohalarida amalga oshirilayotgan yangi bosqichdagi islohotlar o'z mevalarini bera boshlab, O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda.

Mazkur yangilanishlar barcha sohalar kabi ichki ishlar organlari faoliyati samapadorligini oshirishga qaratilgani bilan ham alohida ahami-

yatga ega. Yaqin istiqboldagi taraqqiyotimizning dasturi bo'lgan Harakatlar strategiyasining ikkinchi yo'nalishi ham aynan qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimi islohotlariga bag'ishlangani bejiz emas. Yangi O'zbekistonda demokratik davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish «Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak», degan yuksak g'oyaga asoslangan holda amalga oshirilmoqda.

Shu o'rinda jazoni ijro etish tizimidan amalga oshirilgan islohotlar va ularning natijalari haqida to'xtalib o'tishni joiz deb bildik.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-son "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni jazoni ijro etish tizimini isloh qilishning yangi bosqichini belgilab berdi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatga asosan ichki ishlar organlarining ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lgan jazolarni ijro etish sohasidagi faoliyatni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. Unga asosan:

birinchidan, mahkumlar va qamoqqa olingan shaxslarning huquqlariga so'zsiz rioya etilishini, ularning sha'ni va qadr-qimmati hurmat qilinishini ta'minlash, xodimlarning xizmat vazifalarini lozim darajada bajarishlari ustidan nazoratni korrupsiya va mansab vakolatini suiiste'mol qilish holatlarini istisno etadigan tarzda kuchaytirish;

ikkinchidan, mahkumlarda qonun talablariga va jamiyatdagi xulq-atvor qoidalariga rioya etish madaniyatini, bilim va ma'naviy-axloqiy saviyasini oshirishga intilishni shakllantirishga qaratilgan qayta tarbiyalash va axloqan tuzatish jarayonini takomillashtirish;

uchinchidan, fuqarolar bilan ularni jinoiy-ijroiya sohasida tashvishga solayotgan muammolarni hal etishda samarali muloqot o'rnatish, jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslar ijtimoiy moslashuvini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan uzviy hamkorlikni ta'minlash;

to'rtinchidan, malakali kadrlarni tanlash, ularni maxsus kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha samarali mexanizmlarni joriy etish;

beshinchidan, mehnat bozorida talabgor kasblar bo'yicha asosiy hunar va umumta'lim dasturlarini amalga oshirish doirasida mahkumlarni, xususan, voyaga yetmagan va ma'lumotga ega bo'lmaganlarni o'qitish sifatini oshirish;

oltinchidan, mahkumlarning mavjud salohiyatidan samarali foydalanish va ularni ish bilan ta'minlash maqsadida jazoni ijro etish muassasalarining ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish, shu jumladan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish;

yettinchidan, qo'yilgan vazifalarni samarali bajarishni, mahkumlar va qamoqqa olingan shaxslarga qulay sharoitlar yaratishni nazarda tutuvchi ishni tashkil etishning zamonaviy shakl va usullarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faoliyatda keng qo'llash [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida» 2021-yil 2-apreldagi PQ-5050-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti to'g'risidagi nizom tasdiqlandi [2].

Alohida qayd etish lozimki, so'nggi yillarda sohaga doir **3 ta qonun**, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **6 ta qarori**, **1 ta farmoni**, Hukumatning **10 ta qaror** va farmoyishlari, **14 ta** boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar asosida jazo muddatini o'tayotgan mahkumlarning qonuniy huquq va erkinliklari yanada takomillashtirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lgan jazolarni ijro etish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 11-avgustdagi PQ-3200-son qarori talablariga muvofiq ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lgan jazolarni ijro etish sohasi faoliyati

tubdan takomillashtirilib, mahkumlarning huquqlari doirasi kengaytirildi [3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2017-yil 30-noyabrdagi PF-5268-son farmoni [4] talablariga ko'ra, tergov hibsxonalariidagi mavjud tergovchilar xonalariga 123 dona zamon talablariga javob beradigan ovoz yozishga mo'ljallangan video kuzatuv vositalari o'rnatilib, ishga tushirildi [5].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti Markazlashtirilgan jamg'armasi to'g'risida" 2017-yil 23-oktyabrdagi 861-son qarori talablariga muvofiq jazoni ijro etish muassasalarining ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi hamda xizmat ko'rsatish faoliyatidan oladigan daromadlaridan Jazoni ijro etish departamenti tomonidan belgilanadigan miqdorlardagi ajratmalar hamda jazoni ijro etish muassasalarining soliqlar va yig'imlar, shuningdek davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalar bo'yicha qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar taqdim etilishi natijasida jamg'ariladigan mablag'lari hisobidan shakllantiriladigan Vazirlik Jazoni ijro etish departamenti *Markazlashtirilgan jamg'armasi* tashkil qilindi [6].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Jazoni o'tash muassasalari huzurida davlat unitar korxonalarini tashkil etish to'g'risida" 2017-yil 20-noyabrdagi 924-son qarori (*Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-avgustdagi 445-son "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti faoliyatini yanada samarali tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan*) talablariga ko'ra, jazoni ijro etish koloniyalari huzurida 39 ta (*shundan, 22 tasi ishlab chiqarishga va 17 tasi qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan*) davlat unitar korxonalari tashkil etildi [7].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2018–2024-yillarda jazoni ijro etish muassasalari faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to'g'risida» 2017-yil 11-noyabrdagi 904-son qarori (*Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-avgustdagi 445-son "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti faoliyatini yanada samarali tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan*)da belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda 2018–2022-yillarda jazoni ijro etish muassasalari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturiga asosan modernizatsiya ishlari amalga oshirildi [8].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 12-maydagi PF-5441-son farmoni talablariga muvofiq tergov hibsxonalari va yopiq turdagi jazoni ijro etish koloniyalarida audio va video kuzatuv qurilmalari bo'lmagan, advokat va himoya ostidagi shaxsning suhbatini uchinchi shaxslar eshitishini istisno etuvchi 69 ta advokatlar uchun alohida xonalar ajratilib, ushbu xonalar zarur mebel va boshqa inventarlar bilan jihozlandi [9].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 7-noyabrdagi PQ-4006-son qarori talablariga asosan ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolari qo'llanilgan shaxslarni to'g'ri ijtimoiy hayotga yo'naltirish maqsadida 2019-yil 1-yanvardan boshlab Jazoni ijro etish bosh boshqarmasi huzurida Probatsiya xizmati faoliyati yo'lga qo'yildi [10]. Keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti va uning hududiy bo'linmalari tarkiblarida qayta tashkil etildi [11].

Toshkent viloyati Zangiota tumanida zamonaviy, xalqaro standartlarga mos yangi tergov hibsxonasi qurilib, 2018-yil 15-yanvardan foydalanishga topshirildi [12].

O'zbekiston Respublikasining "Mahkumlarining hamda qamoqda saqlanayotgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2019-yil 14-martdagi O'RQ-530-son qonuniga asosan O'zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya qonunchiligi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yil 17-dekabrda rezoilyutsiyasi bilan qabul qilingan «Mahkumlar bilan muomala qilishning minimal standartlari qoidalar» (Nelson Mandela qoidalar) milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilindi [13]. Unga ko'ra:

- mahkumlarga psixologik yordam olish huquqi berildi;
- tibbiy yordamga muhtoj mahkumlarga Sog'liqni saqlash vazirligi hududiy muassasalariga joylashtirishga ruxsat berildi;
- og'ir kasallikka chalingan mahkumlarga telefon orqali qo'shimcha so'zlashishga, shifokorning ruxsati bilan uchrashishga ruxsat berildi;
- ruhiy holati buzilgan vaqtda mahkum tomonidan sodir etilgan tartibbuzarlik uchun intizomiy jazo choralari qo'llash bekor qilindi.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2019-yil 29-avgustdagi O'RQ-558-son qonuniga muvofiq mahkumlarning ish haqidan ijtimoiy sug'urta ajratilmasligi belgilanib, pensiya ta'minotiga ega bo'lishi ta'minlandi [14]. Shuningdek, ushbu Qonunga asosan yopiq turdagi koloniyalarda saqlanayotgan mahkumlarning telefon so'zlashuvi, yo'qlov va uchrashuvlar olishi soni qariyb ikki barobarga ko'paytirildi. Unga ko'ra, telefon so'zlashuvlari umumiy tartibda – 6 tadan 12 taga, qattiq – 3 tadan 5 taga, maxsus va turmada – 2 tadan 4 taga, tarbiya koloniyada – 12 tadan 24 taga; yo'qlov (posylka) olish umumiy tartibda – 6 tadan 12 taga, qattiq tartibda – 4 tadan 8 taga, maxsus va turmada – 3 tadan 6 taga, tarbiya

koloniyalarda – 6 tadan 12 taga ko'paytirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar uchun umumiy ta'lim va kasb-hunarga o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 16-apreldagi 318-son qarori talablariga muvofiq jazo muddatini o'tayotgan mahkumlarning ta'lim olishi va kasb-hunar egallashlari bo'yicha huquqiy kafolat mustahkamlandi. Shuningdek, «Hunarmand» uyushmasi bilan hamkorlikda «Usta-shogird» maktablari faoliyati yo'lga qo'yildi [15].

Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning mehnat bilan bandligini ta'minlash, jazoni ijro etish koloniyalari huzuridagi davlat unitar korxonalarning ishlab chiqarish va qishloq xo'jalik faoliyatini bosqichma-bosqich takomillashtirish borasida zarur choralar ko'rildi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-iyundagi Saylov kodeksi talablariga asosan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyati uchun jazo o'tayotgan mahkumlarga ilk marotaba saylov huquqi berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 19-son ixtisoslashtirilgan jazoni ijro etish koloniyasini tugatish to'g'risida" 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4414-son qarori [16] va Vazirlar Mahkamasini tegishli qarorlari asosida tizim tasarrufidagi 3 ta (*Qashqadaryodagi 33 - son, Toshkentdagi 65-son hamda Qoraqalpog'istondagi 19-son ixtisoslashtirilgan koloniya*) yopiq turdagi koloniyalar faoliyati to'liq tugatildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq jazolarni ijro etish muassasalarining faoliyati samaradorligini ta'minlash bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 5-maydagi 128-son qarori [17] talabalariga ko'ra, jazoni ijro etish muassasalari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish, jazo muddatini o'tayotgan mahkumlarning yashash sharoitlarini yanada yaxshilash maqsadida, 2020 – 2024-yillar mobaynida barcha yopiq turdagi koloniyalardagi mavjud yotoqxona binolarini kubrik tipiga bosqichma-bosqich mos-

lashtirish, interaktiv videokuzatuv (1 833 dona) moslamalari o'rnatish hamda xodimlarni shaxsiy videoregistratorlar (36 komplekt bodi-kamera) bilan xizmat o'tashlarini joriy qilish belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ichki ishlar organlarining ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lgan jazoni ijro etish faoliyatining ochiqdigi va oshkoraligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 22-maydagi 316-son qarori talablariga asosan O'zbekistonda olib borilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlarni statistik ma'lumotlar bilan izohlash va mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o'rini aniq ifoda etilishini ta'minlash maqsadida, maxfiy hisoblangan ayrim ma'lumotlar ochiq ma'lumotlar ro'yxatiga kiritildi, jumladan:

O'zbekiston Respublikasi IIVning jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsxonalarida saqlanayotgan shaxslar soni;

O'zbekiston Respublikasi IIVning jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsxonalarini soni hamda ular joylashgan joyi;

jazoni ijro etish muassasalarining ishlab chiqarish faoliyati, ular tomonidan nomenklatura bo'yicha va pul bilan ifodalanadigan ishlab chiqarilayotgan tovar mahsulotlar;

O'zbekiston Respublikasi IIVning jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsxonalarida saqlanayotgan shaxslar orasida o'lim holatlari soni;

jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan va tibbiy tuzdagi majburiy choralar qo'llaniladigan mahkumlar soni to'g'risidagi ma'lumotlar [18].

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksiga mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2020-yil 30-iyundagi O'RQ-625-son qonuniga asosan mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilinishi hamda jazoni ijro etish tizimida shaxsni axloqan tuzatish va jamiyatga ijtimoiy moslashuvi ta'minlandi [19].

Ushbu Qonunga muvofiq:

– mahkumlarning jazo muddatini o'tash davoda

mida shaxsiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan choralar kengaytirildi;

– mahkumlarni tintuv qilish vaqtida jismoniy kuch va maxsus vositalar asossiz qo'llanilishini oldi olindi;

– mahkumlar va ularning yaqin qarindoshlariga qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida qisqa muddatli uchrashuv, video-uchrashuv va telefon orqali so'zlashuvlarni o'zaro almashtirish tartibi joriy etildi;

– mahkumlarni jazo o'tash davrida adolatli mezonlar asosida rag'batlantirish choralarini qo'llash tartibi belgilandi;

– voyaga yetmagan mahkumlarga ota — onalari bilan uchrashuvlarga nisbatan cheklovlar olib tashlandi;

– mahkuma ayollarning huquq va erkinliklarini yanada kengaytirish hamda tashqarida bolalar uyida tarbiyalanayotgan bolalari bilan uchrashishini tartibga solish borasida voyaga yetmagan farzandlari bilan uchrashuvlarining alohida tartibi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 26-martdagi PF-6196-son farmoniga asosan jazoni ijro etish sohasi takomillashtirilib, Jazoni ijro etish bosh boshqarmasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti etib qayta tashkil etildi [20].

Ushbu Farmonga asosan:

Jazoni ijro etish departamentining bevosita ichki ishlar vaziriga bo'ysunuvi va vazirning zimmasiga ichki ishlar organlarining jinoiy jazolarni ijro etish tizimini rivojlantirish va unda qat'iy intizomni ta'minlash uchun shaxsiy javobgarlik yuklanadi;

ichki ishlar organlarining barcha tergov hibsxonalarini va jazoni ijro etish muassasalari hududiy ichki ishlar organlarining tuzilmaviy-funksional bo'ysunuvidan chiqarilib, Jazoni ijro etish departamenti bo'ysunuviga o'tkazildi;

tergov hibsxonalarini va jazoni ijro etish muassasalari faoliyatini samarali yo'lga qo'yish va

ularda kunlik nazoratni olib borish Jazoni ijro etish departamenti tizimida tashkil etiladigan 6 ta mintaqaviy muvofiqlashtirish markazlari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida» 2021-yil 2-apreldagi PQ-5050-son qaroriga asosan jazoni ijro etish tizimini raqamlashtirish orqali inson omilini istisno etgan holda boshqaruvni ta'minlash yo'lga qo'yilib, ishlab chiqarish faoliyati isloh qilindi [2].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-fevraldagi "Diplomatik korpus, xalqaro va mahalliy nodavlat notijorat tashkilotlar hamda ommaviy axborot vositalari vakillarining jazoni ijro etish muassasalariga tashrifini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 85-son qarori talablariga asosan diplomatik korpus, xalqaro, respublika va mahalliy nodavlat notijorat tashkilotlar, xorijiy va mahalliy ommaviy axborot vositalari vakillarining jazoni ijro etish muassasalariga tashrifini tashkil etish tartibi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti faoliyatini

samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 232-sonli qaroriga muvofiq Jazoni ijro etish departamenti tarkibiy va hududiy tuzilmalari shaxsiy tarkibining xizmat va jangovar tayyorgarligi samaradorligini yanada oshirish yuzasidan aniq vazifalar belgilandi [21]. Qaror talablariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Namangan viloyati Uychi tumanidagi 6-son tergov hibsonasi hududida bo'sh turgan 0,7 ga yer maydonida Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti markazlashtirilgan jamg'armasi mablag'lari hisobidan, alohida yuridik shaxs tashkil etmagan holda, Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti o'quv poligonini tashkil etish belgilandi.

Yuqoridagilarga asoslanib aytish joizki, jazoni ijro etish tizimidagi islohotlarni kompleks nuqtai nazardan baholashning yagona mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Jumladan, islohotlar borishini monitoring qilish bo'yicha yagona tartib joriy qilish o'rinli. Bu esa, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni baholashda yaxlit tizimni shakllantirishga hamda islohotlar natijalarining miqdoriy va sifat jihatidan qiyosiy tahlilini olib borishga, statistik va boshqa turdagi ma'lumotlarni bir nuqtada to'plash, monitoring hamda tahlil qilish va umumlashtirish uchun yagona elektron platformani shakllantirishga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-son "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 15-son, 243-m.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi «Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida» PQ-5050-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.04.2021-y., 07/21/5050/0280-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-avgustdagi "Ichki ishlar organlarining ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lgan jazolarni ijro etish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3200-son qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 33-son, 838-m.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5268-son farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.12.2017-y., 06/17/5268/0341-son.

5. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamentidan olingan ma'lumotlar.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 23-oktyabrdagi 861-son "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamentining Markazlashtirilgan jamg'armasi to'g'risida"gi qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2017-y., 09/17/861/0157.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-noyabrdagi "Jazoni o'tash muassasalari huzurida davlat unitar korxonalarini tashkil etish to'g'risida"gi 924-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.11.2017-y., 09/17/924/0298-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-noyabrdagi «2018 – 2024-yillarda jazoni ijro etish muassasalari faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi 904-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.11.2017-y., 09/17/904/0243-son.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydagi "Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarining mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5441-son farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.05.2018-y., 06/18/5441/1210-son.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-noyabrdagi "Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4006-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.11.2018-y., 07/18/4006/2166-son.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021-y., 06/21/27/1116-son.
12. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamentidan olingan ma'lumotlar.
13. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 14-martdagi "Mahkumlarning hamda qamoqda saqlanayotgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-530-son qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.03.2019-y., 03/19/530/2769-son.
14. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 2019-yil 29-avgustdagi O'RQ-558-son qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.08.2019-y., 03/19/558/3662-son.
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 16-apreldagi "Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar uchun umumiy ta'lim va kasb-hunarga o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 318-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.04.2019-y., 09/19/318/2956-son.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 19-son ixtisoslashtirilgan jazoni ijro etish koloniyasini tugatish to'g'risida" 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4414-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.08.2019-y., 07/19/4414/3510-son.
17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 5-maydagi "Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq jazolarni ijro etish muassasalarining faoliyati samaradorligini ta'minlash bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 128-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.03.2020-y., 09/20/128/0261-son.
18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ichki ishlar organlarining ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lgan jazoni ijro etish faoliyatining ochiqqligi va oshkoraligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 22-maydagi 316-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.05.2020-y., 09/20/316/0643-son.
19. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksiga mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari ishonchli himoya qilinishini ta'minlashga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ– 625-son qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.07.2020-y., 03/20/625/1007-son.
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021-y., 06/21/6196/0240-son.
21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamentining faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2024-yil 24-apreldagi 232-sonli qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.04.2024-y., 09/24/232/0297-son.